



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

XX ASRNING 30–40-YILLARIDA BUXORODA FAN-TA'LIMNING AHVOLI VA QATAG'ONLIK SIYOSATI

Zaripova Sarvinoz

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 30–40-yillarida Buxoroda fan va ta'lim tizimining holati hamda sovet davridagi qatag'onlik siyosatining uning rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Mazkur davrda ta'lim muassasalari faoliyati, ilmiy muhit, ziyolilar va pedagoglarning jamiyatdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, qatag'on siyosati natijasida ko'plab ilm-fan namoyandalari va ma'rifatparvarlarning ta'qib qilinishi, ularning faoliyatiga qo'yilgan cheklovlar hamda bu jarayonlarning hududdagi ta'lim va ilmiy taraqqiyotga ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: XX asr 30–40-yillari, Buxoro, fan va ta'lim, sovet davri, qatag'on siyosati, ziyolilar, ta'lim muassasalari, ilmiy muhit, repressiya.

СОСТОЯНИЕ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В БУХАРЕ В 30–40-Е ГОДЫ XX ВЕКА И ПОЛИТИКА РЕПРЕССИЙ

Зарипова Сарвиноз

Бухарский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье рассматривается состояние науки и образования в Бухаре в 30–40-е годы XX века, а также влияние политики репрессий на их развитие. Освещается деятельность образовательных учреждений, научная среда и роль интеллигенции и педагогов в обществе. Особое внимание уделяется последствиям репрессивной политики, в результате которой многие представители науки и просвещения подверглись преследованиям. На основе исторических источников анализируется влияние этих процессов на развитие науки и образования в регионе.

Ключевые слова: 30–40-е годы XX века, Бухара, наука и образование, советский период, политика репрессий, интеллигенция, образовательные учреждения, научная среда, репрессии.

THE STATE OF SCIENCE AND EDUCATION IN BUKHARA IN THE 1930S–1940S AND THE POLICY OF REPRESSION

Zaripova Sarvinoz

Bukhara State University, Basic Doctoral Student

Abstract

This article examines the state of science and education in Bukhara during the 1930s and 1940s and analyzes the impact of the repression policy on their development. It highlights the activities of educational institutions, the scientific environment, and the role of intellectuals and teachers in society. Special attention is given to the consequences of the repression policy, during which many representatives of science and enlightenment were persecuted. Based on historical sources, the study analyzes the impact of these processes on the development of science and education in the region.

Keywords: 1930s–1940s, Bukhara, science and education, Soviet period, repression

policy, intelligentsia, educational institutions, scientific environment, repression.

Sovet hokimiyati ta'lim siyosatining maqsadi asosan Rossiyadan tashqari hududlarda "arzon ishchi qatlamini" tashkil qilish bo'lgan. SSSRning 1930-yil 14-avgustda qabul qilingan "Umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim haqida" qonuniga ko'ra, 8–10 yoshli bolalarni boshlang'ich maktablarning kamida 4 yillik kursi hajmida umumiy majburiy o'qishga jalb etish, 11–15 yoshli mehnat maktabining 4 yillik bosqichida o'qimaganlar uchun tezlashtirilgan 1–2 yillik o'qishlarni tashkil etish, sanoat shaharlarida esa 1930–1931-o'quv yilidan 7 yillik majburiy maktabga tortish masalalari ko'rsatilgan edi.

Ta'lim tizimini yovg'iylar nazorat qilmagan davrda jadid ziyolilarimiz o'z milliy ta'lim andozalari va yaratgan darsliklari asosida qisqa fursatda xalqning hatto harf tanimaydigan asosiy qismining savodini chiqara oldi. Turkiya va Yevropaga ta'lim uchun jo'natilayotgan yoshlardan xavfsirashni boshlagan imperiya xorijda o'qiyotgan turkistonliklar, ularni kim va qanday yo'llar orqali yuborgani, homiylari, u yerda qaysi fanlardan tahsil olayotgani va kimlar bilan uchrashayotgani haqida kundalik hisobot yig'a boshladi.

Sovet hokimiyati yangi usuldagi ta'lim tizimi yutuqlarini ko'rgach, jadidlarning keyingi natijalarini chamaladi. Shuning uchun ham maorif tizimida qatag'on siyosatini amalga oshirdi. Birgina misol: 1933-yil 27-martda VKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi o'qituvchi kadrlar safini tozalash haqidagi maxsus qaror qabul qiladi. Amalda ta'lim tizimining fidoyi xodimlari, sifatli ta'lim berayotgan o'qituvchilar sohadan chetlatildi, ya'ni qatag'on qilindi. Sovet tuzumi andozasidagi ta'lim tizimini o'rnatish uchun milliy kadrlarni yo'qotish siyosati amalga oshirildi.

Sovet hokimiyati hatto chet elga (Turkiya, Germaniya va boshqalar) o'qishga jo'natilgan talabalaridan sovet davlati uchun ayg'oqchilik qilishni talab qilgan holatlar ham kuzatilgan. Bosh tortgan talabalar ta'til vaqtida uylariga qaytganlarida siyosiy ayblovlar bilan qamoqqa olingan yoki o'qishga qaytib borishi cheklab qo'yilgan. O'z vatanidagi bunday qatag'on siyosatidan xabar topgan ayrim talabalar esa o'sha davlatlarda qolishga majbur bo'lgan.

Sovet hukumatining O'zbekiston maorif tizimida olib borgan qatag'on siyosati uch bosqichda amalga oshirilgan:

- 1-bosqich – o'zgacha fikrlovchilarni aniqlab, ularni jazolash;
- 2-bosqich – oila a'zolarini jazoga tortish;
- 3-bosqich – qatag'onga uchragan shaxslarning ustozlari yoki o'quvchilarini ham qatag'on qilish.

Sovet ta'lim tizimining asl siyosatiga oid yangi ma'lumotlar tadqiqotchilar tomonidan manbalar asosida jamoatchilikka taqdim etilmoqda. Xususan, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Yulduz Tursunovanning tadqiqotiga ko'ra, birgina 1929–1941-yillarda O'zbekiston SSR maorifi sohasida faoliyat yuritgan jami 391 nafar maorif xodimi jinoyatchi sifatida ayblanib qatag'on qilingan.

Qatag'on qilinganlarning ijtimoiy mavqei tahlil qilinganda:

- 78 nafari Maorif xalq komissarligi boshqaruvi xodimlari,
- 21 nafari maktab rahbarlari,
- 168 nafari o'qituvchilar,
- 18 nafari o'rta maxsus o'quv yurtlari rahbarlari,
- 18 nafari o'rta maxsus o'quv yurtlari o'qituvchilari,
- 22 nafari oliy o'quv yurtlari rahbarlari,
- 53 nafari professor-o'qituvchilar va boshqalar bo'lgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida erkak o'qituvchilarning armiyaga chaqirilishi va ko'plab maktab binolarining hospitallarga aylantirilishi sabab darslar uch smenada olib borilgan, har bir dars davomiyligi 35–40 daqiqa qilib belgilangan. Musiqa va rasm darslari olib tashlangan.

Eng katta muammo – 1940-yil may oyida O'zSSR Oliy Soveti tomonidan "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbodan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga ko'chirish

to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi edi. Avvalgi darsliklar yig'ib olingan, yangilari esa hali chop etilmaganligi sababli darsliklar yetishmasligi yuzaga kelgan.

Urush oqibatida O'zbekistonga milliondan ortiq bolalar evakuatsiya qilingan. Natijada bolalar uylari ochilib (1943-yilda 154 ta, 1945-yilda 242 ta), ularni o'qitish masalasi ham kun tartibiga qo'yilgan. Butun sovet hududida o'qituvchilar yetishmasligi davrning eng katta muammolaridan biri bo'lib qolgan va bu muammo keyingi 10–15 yil davomida ham saqlanib qolgan.

Sovet hokimiyati yillarida rasmiy hukumat tomonidan qatag'on siyosati O'zbekistonda muntazam ravishda amalga oshirilgan. "Qatag'on" va "repressiya" atamaları o'zbek tilida deyarli bir xil ma'noda qo'llanilgan. "Repressiya" so'zi lotincha "repressio" – kuch bilan bostirish, to'xtatish ma'nosini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, sovet davrida qatag'on qilingan vatandoshlarimiz nomini oqlash va ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1999-yil 12-maydagi Prezident farmoyishiga muvofiq mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish bo'yicha jamoatchilik komissiyasi tuzildi. 2001-yil 1-maydagi qaror asosida Toshkent shahrida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi va "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi tashkil etildi.

Har yili 31-avgust kuni O'zbekistonda "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" sifatida nishonlanadi.

O'zbekiston tarixshunosligida qatag'on qilingan shaxslar taqdirini yoritishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbarlarining (Fayzulla Xo'jayev va Fitrat bundan mustasno) hayoti va ularning 1937-yildagi qatag'on qilinishi haqida hali ham yetarlicha tadqiqotlar mavjud emas. Shu sababli mazkur maqolada BHSSR sobiq rahbarlaridan 17 nafarining 1937-yildagi qatag'oni, ya'ni "o'n yettilar ishi" haqida so'z yuritiladi.

Tarixdan ma'lumki, 1920–1924-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BHSSR) mavjud bo'lgan. Uning hukumatiga taniqli davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo'jayev rahbarlik qilgan. BHSSR hukumatining birinchi tarkibi 11 kishidan iborat bo'lib, unga Qori Yo'ldosh Po'latov, Muxtorjon Saidjonov, Usmon Xo'ja, Najib Husainov, Mukammil Burhonov, Shohobiddinov, Muhitdin Mansurov kabi arboblardan iborat.

Asosan jadidlardan tashkil topgan Buxoro hukumati o'sha davrdagi Turkiston ASSR sovet hukumatidan farqli ravishda ma'rifatli kishilar yig'ilgan hukumat hisoblangan. "O'n sakkizlar ishi", "Zarafshon ishi", "Karmana ishi" natijasida O'zbekistonda XX asr 20-yillaridan boshlab juda ko'plab buxorolik ziyolilar qatag'on qilindi. Faqat ayrimlari (Usmon Xo'ja, Hoshim Shoyiq va boshqalar) xorijga chiqib ketishga muvaffaq bo'ldi. 1937-yilda esa 17 nafar buxorolik jadid sovet rejimi tomonidan qamoqqa olinib, ularga turli ayblovlar qo'yildi. Mazkur ishlar bo'yicha arxiv hujjatlari hozirgi kunda ham maxsus xizmatlar arxivida P-31922 raqami bilan saqlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, XX asrning 30–40-yillarida Buxoroda fan va ta'lim tizimi murakkab hamda ziddiyatli jarayonlarni boshdan kechirdi. Bir tomondan, sovet hokimiyati umumiy savodxonlikni oshirish, maktablar tarmog'ini kengaytirish va yangi ta'lim tizimini joriy etishga intilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu siyosat milliy ma'rifatparvar kuchlarni siqib chiqarish, mustaqil fikrlovchi ziyolilarni yo'q qilish va ta'limni mafkuraviy nazorat ostiga olish bilan kechdi. Ayniqsa, jadid ziyolilari va milliy kadrlarning qatag'on qilinishi Buxorodagi ilmiy-ma'rifiy muhitga og'ir zarba bo'ldi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, qatag'on siyosati nafaqat alohida shaxslar taqdiriga, balki butun bir hududning intellektual salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. O'qituvchilar, pedagoglar, maorif tizimi rahbarlari hamda davlat arboblarning ta'qib qilinishi natijasida ta'lim tizimida uzilishlar yuzaga kelgan, milliy ta'lim an'analari zaiflashgan va fan taraqqiyoti sun'iy ravishda cheklangan. Ikkinchi jahon urushi yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, o'qituvchilar yetishmovchiligi, maktablarning gospitalarga aylantirilishi va yozuv islohoti bilan bog'liq

muammolar esa bu inqirozni yanada chuqurlashtirgan. Shuningdek, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida faoliyat olib borgan ko‘plab ma‘rifatli arboblardan va jadidlarning keyinchalik “xalq dushmani” sifatida ayblanib qatag‘on qilinishi sovet tuzumining asl maqsadi milliy uyg‘onish kuchlarini bostirish bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu holat, ayniqsa, “o‘n yettilar ishi” kabi voqealar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Demak, XX asrning 30–40-yillarida Buxoroda fan va ta‘lim sohasidagi jarayonlarni qatag‘on siyosatidan alohida holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Mazkur davr tarixi ilm-fan va ma‘rifat rivoji uchun faqat tashkiliy choralar emas, balki erkin fikr, milliy ziyolilar salohiyati va ma‘naviy mustaqillik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ziyolilar faoliyatini chuqur o‘rganish, ularning ilmiy va ma‘rifiy merosini tiklash bugungi tarixshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston SSR tarixi. Qadimgi davrlardan hozirgi kunlargacha. I. Mo‘minov tahriri ostida. T., Fan, 1974.
2. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi. T., O‘zbekiston, 1977.
3. O‘zbekiston xalqlari tarixi. 1-jild. T., Fan, 1992.
4. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. 2-kitob. T., Sharq, 2000.
5. Mirzaqulov B.T. Qorako‘l qishloqlari toponomikasi to‘g‘risida // Tarixiy xotira. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2009.
6. Qosimov F.N. Buxoro respublikasi tarixshunosligi. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 1996.
7. Qosimov F.N. Istiqlol va tarixiy xotira. – Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2006.
8. G‘afurov A., Rashidov U. Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyati tarixidan lavhalar (1920–1924). – T., 1992.